

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI  
PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**2023-2024 O'QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN  
MAKTABLARNING 9-SINF O'QUVCHILARI UCHUN**

# **ONA TILI VA ADABIYOT**

**FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH  
BO'YICHA METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**



**Tuzuvchilar:** **Rahimova Sabohat**- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, **Xasanova Malika** - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

**Ekspert:** **Xamrayeva Mavjuda** - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## **2023-2024-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING 9-SINF O'QUVCHILARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT IMTIHONINI O'TKAZISH BO'YICHA ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN SPETSIFIKATSIYASI.**

9-sinfni tugatgan o'quvchilar ona tili va adabiyot fanidan ta'lim dasturi bo'yicha standartlar asosida belgilangan kompetensiyalarga ega bo'ladilar.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2023–2024-o'quv yilida 9-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari ona tili va adabiyot fani bo'yicha maktablarning 7-8-9-sinflari mavzularini qamrab olgan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oida topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

O'quvchilarga taklif etilgan baza savollaridan tashkil topgan 2 ta bilet taqdim etiladi. Biletida o'quvchiga 5 tadan (3 ta ona tili, 2 ta adabiyot) savol beriladi. Savollarning 2 tasi (1 ta ona tili, 1 ta adabiyot) bilishga, 2 tasi (1 ta ona tili, 1 ta adabiyot) qo'llashga, 1 tasi (1 ta ona tili) mulohazaga oid bo'ladi. Bilet savollariga javob berishi uchun umumiy 30 daqiqa vaqt beriladi.

O'quvchilarning yozma ishlari ona tili fanlarining har biri uchun alohida 100 ballik tizim asosida:

0 – 29% – “qoniqarsiz”;

30–65% – “qoniqarli”;

66–85% – “yaxshi”;

86–100% – “a'lo”

baho kabi baholanadi. Har bir topshiriq uchun belgilangan balldan yuqori ball qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi.

**9-SINF ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN YAKUNIY  
ATTESTATSIYA SPETSIFIKATSIYASI**

| <b>Ona tili va adabiyot</b>   | <b>Soni</b> | <b>Bilish</b> | <b>Qo'llash</b> | <b>Mulohaza</b> | <b>To'liq<br/>javob</b> |
|---|-------------|---------------|-----------------|-----------------|-------------------------|
| <b>“Alpomish” dostonining badiiy xususiyatlari.<br/>Matnda ko‘p ma’noli, ma’nodosh so‘zlardan foydalanish</b>   | 5           | 2             | 2               | 1               |                         |
| <b>“Kuntug`mish” dostoni. Xalq dostonlarining millat ruhiyatini aks ettirishdagi o`rni.<br/>Shakldosh, qarama-qarshi ma’noli, talaffuzdosh so‘zlardan foydalanish</b> | 5           | 2             | 2               | 1               |                         |
| <b>Said Ahmad. “Ufq” romanidan parcha.<br/>Mustaqil so‘z turkumlari.<br/>Yordamchi so‘zlar</b>  | 5           | 2             | 2               | 1               |                         |
| <b>Shukur Xolmirzayev “Omon ovchining o‘limi” hikoyasi.<br/>Mustaqil so‘z turkumlari tasnifi bo‘yicha tahlil, matn bilan ishlash.</b>                                 | 5           | 2             | 2               | 1               |                         |
| <b>Muhammad Yusufning “Vatanim” she’ri.<br/>Sodda gap va gap bo‘laklari yuzasidan tahlil</b>  | 5           | 2             | 2               | 1               |                         |
| <b>Rabindranat Tagor “Shubxa” hikoyasi tahlili.<br/>Uyushiq bo‘laklar</b>   | 5           | 2             | 2               | 1               |                         |
| <b>O‘lmas Umarbekov “Qiyomat qarz” hikoyasi.<br/>Sodda va qo‘shma gaplar</b>  | 5           | 2             | 2               | 1               |                         |
| <b>Oybekning “Navoiy” romani.<br/>Qo‘shma gap qismlari va ularni bog‘lovchi vositalar</b>   | 5           | 2             | 2               | 1               |                         |
| <b>Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi.<br/>Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi</b>   | 5           | 2             | 2               | 1               |                         |
| <b>Chingiz Aytmatov “Asrga tatigulik kun” romani.</b>   | 5           | 2             | 2               | 1               |                         |

**Tinish belgilari va ularning yozma nutqdagi ahamiyati.**

### TOPSHIRIQ BO‘YICHA BAHOLASH MEZONI

| No | Egallashi lozim bo‘lgan ko‘nikmalar                                       |   | Topshiriq turi | Topshiriq shakli | Baholash mezon   |
|----|---|---|----------------|------------------|--|
| 1  | Matn qaysi asardan olinganini, janri va g‘oyasini aniqlay olish;          | B | Yozma          | Yozma            | <p>Matn qaysi asardan olinganini, janri va g‘oyasini to‘liq, hayotiy misollar asosida, taqqoslab, yuqori darajada tushuntirib bersa; <b>16-18 ball</b></p> <p>Matn qaysi asardan olinganini, janri va g‘oyasini hayotiy misollar asosida, sezilarli darajada tushuntirib bersa; <b>13-15 ball</b></p> <p>Matn qaysi asardan olinganini, janri va g‘oyasi haqida qoniqarli darajada aytib bera olsa; <b>8-11 ball</b></p> <p>Matn qaysi asardan olinganini, g‘oyasi haqida ayrim tafsilotlarni bersa; <b>1-7 ball</b></p> <p>O‘quvchi yuqorida tasvirlangan biror standartga yetisha olmasa <b>0 ball</b></p> |
| 2  | Matn asosida berilgan grammatik topshiriqlarni qoida asosida bajara olish | B | Yozma          | Yozma            | <p>Matn asosida berilgan grammatik topshiriqlarni qoida asosida yuqori darajada bajara olsa: <b>16-18 ball</b></p> <p>Matn asosida berilgan grammatik topshiriqlarni</p>   |

|     |  |   |       |       |   |
|-----|--|---|-------|-------|---|
|     |  |   |       |       | <p>qoida asosida sezilarli darajada bajara olsa: <b>13-15 ball</b></p> <p>Matn asosida berilgan grammatik topshiriqlarni qoida asosida qoniqarli darajada bajara olsa; <b>8-11 ball</b></p> <p>Matn asosida berilgan grammatik topshiriqlarni qoida asosida minimal darajada bajara olsa; <b>1-7 ball</b></p> <p>O'quvchi yuqorida tasvirlangan biror standartga yetisha olmaydi. <b>0 ball</b></p>   |
| 3,4 | Berilgan topshiriqqa a'lo darajada o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqib, hayotiy misollar bilan asoslab bera olish | Q | Yozma | Yozma | <p>Berilgan topshiriqqa a'lo darajada o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqib, hayotiy misollar bilan asoslab bersa; <b>18-21 ball</b></p> <p>Berilgan topshiriqqa o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqib, sezilarli talab darajasida izoh bersa; <b>14-17 ball</b></p> <p>Berilgan topshiriqqa qoniqarli darajada izoh bera olsa; <b>9-13 ball</b></p> <p>Berilgan topshiriqqa ba'zi tafsilotlar bilan minimal darajada izoh bersa; <b>1-8 ball</b></p> <p>O'quvchi yuqorida tasvirlangan biror standartga yetisha olmaydi. <b>0 ball</b></p> |
| 5   | Berilgan topshiriqqa a'lo darajada kreativ yondashib, chuqur mulohaza yuritib, bugungi kun bilan                 | M | Yozma | Yozma | <p>Berilgan topshiriqqa a'lo darajada kreativ yondashib, chuqur mulohaza yuritib, bugungi kun bilan</p>   |

|  |                                      |  |  |   |
|--|--------------------------------------|--|--|---|
|  | bog‘lab misollar keltirib bera olish |  |  | <p>bog‘lab misollar keltirib bera olsa; <b>19-22 ball</b><br/>Berilgan topshiriqqa sezilarli darajada kreativ yondashib, bugungi kun bilan bog‘lab misollar keltirib bera olsa; <b>15-18 ball</b><br/>Berilgan topshiriqqa qoniqarli darajada kreativ yondashib, bugungi kun bilan bog‘lab misollar keltirib bera olsa; <b>10-14 ball</b><br/>Berilgan topshiriqqa minimal darajada yondashib, qisman misollar keltirib bera olsa;<br/><b>1-9 ball</b><br/>O‘quvchi yuqorida tasvirlangan biror standartga yetisha olmaydi; <b>0 ball</b></p> |
|--|--------------------------------------|--|--|---|

## I VARIANT

**...Qoraxon bechora yolg‘iz farzandini bu holda ko‘rib, yoqasini pora-pora qilib, qushnochni olib kelib qoqtirib, baxshini olib kelib boqtirib, mullani olib kelib o‘qitib, eshonni olib kelib halqa qilib qarataberdi. O‘g‘liga aslo naf qilmadi.**

Qoraxon podsho o‘g‘lining oldida betoqat bo‘lib:

– Nega ko‘zingni ochib gapirmaysan? – deb shuncha iltijo qildi, o‘g‘li bilmadi, shu qushnochlardan bir ayyori bor edi. To‘raning vujudidan kasal topmay, ishqdan gumon qilib, podshoga aytdi:

– Siz dalaga chiqib turing....

Qushnoch qirq yigitini hozir qilib, bir-ikki-uch piyola sharobni to‘raga berdi. Sharobning kayfi bilan to‘ra ko‘zini ochib qarasa, qirq yigiti yig‘lab, o‘rtaga olib o‘tiribdi. To‘ra dardini pinhon tutolmay, yigitlariga qarab bir so‘z aytib turibdi. (100 so‘z)

## TOPSHIRIQLAR:

1. Berilgan matn qaysi asardan olingan? Asar nomi va ijrochisini hamda g‘oyasini aniqlang. **(Bilish)**

2. Matndan ifodalangan shakldosh so‘zlarni toping va leksik xususiyatini yozing. **(Bilish)**

3. Asardagi”... *Qoraxon bechora yolg‘iz farzandini bu holda ko‘rib, yoqasini pora-pora qilib, qushnochni olib kelib qoqtirib, baxshini olib kelib boqtirib, mullani olib kelib o‘qitib, eshonni olib kelib halqa qilib qarataberdi*” jummalari qaysi voqeaga ishora qiladi? **(Qo‘llash)**

4. Quyida berilgan so‘zlarning ma‘nosini hozirgi o‘zbek adabiy tildagi mos varianti bilan izohlab yozing.

|                      |  |
|----------------------|--|
| Qushnoch             |  |
| to‘ra                |  |
| boqtirmoq            |  |
| pora qilmoq          |  |
| qoqtirmoq            |  |
| halqa qilib qaratmoq |  |

5. Qoraxon o‘g‘lini dardi nimadalgini bilish uchun nega aynan shunday ”choralar” qildi? Bugungi kunimiz otalari nima qilishgan bo‘lardi? **(Mulohaza)**

## II VARIANT

...Bu so‘zlarni Barchindan eshitib... Qorajon otlanib borayotib edi. Bir kam to‘qson alp kelayotib edi, Qorajonning oldidan chiqib qoldi. To‘qson alpnig zo‘ri Ko‘kaldosh turib aytdi: “O‘zbekning qizining muhlati bitdi. Uchradingmi, nima javob aytdi?” “O‘zbekning qiziga uchrab kelayotirman. O‘zbekning qizining aytgan so‘zi shul bo‘ldi: “Poyga qilaman, otini o‘zdirganga tegaman. Kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman. Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga tegaman.

Ming qadamdan tanga pulni urganga tegaman”, — dedi. Bul so‘zni eshitib, *Ko‘kaldosh aytdi: “O‘zbekning qizining ko‘ngli menda. Poyga bo‘lsa, o‘zib kelmoq Ko‘kdo‘nanning tani. Kurash bo‘lsa, to‘qson alpnig barini qo‘ymasdan yiqmoq faqirning tani.* Yoy tortishganda ham mening yoyim sinmay qoladi. Ming qadamdan tanga pulni ursin deпти, besh yuz qadamdan tanga pulni uraman. (108 so‘z)

## TOPSHIRIQLAR:

1. Berilgan matn qaysi asardan olingan? Asar janri hamda g'oyasini aniqlang. **(Bilish)**
2. Matnda ajratib ko'rsatilgan gapda ifodalangan ko'p ma'noli so'zlarning avval o'z ma'nosini, keyin ko'chma ma'nosini yozing. **(Bilish)**
3. Asardagi "...*bir kam to'qson alp*" deya ta'riflangan qahramonlarga tavsif bering. Ushbu qahramonlarning asarda tutgan o'rnini izohlang. **(Qo'llash)**
4. Matnda ifodalanga ma'nodosh so'zlarni topib, sinonimlari bilan birga yozing. **(Qo'llash)**
5. Nega Ko'kaldosh "O'zbekning qizining ko'ngli menda" deb o'yladi? **(Mulohaza)**

### **III VARIANT**

...Baxtiyor odam hammani o'ziga o'xshatadi. Ikromjon hozir shunday kayfiyatda edi. Yor-birodarlari oldida yuzi yorug' bo'ldi. *Vatan uchun qilgan xizmatlari oliy mukofot bilan taqdirlandi. U bu mukofotni o'z qishlog'ida, birga mehnat qilgan, birga ter to'kkan jo'ralari oldida ko'kragiga taqdi. Hozir uning ko'ziga boshqalar ham xuddi shunday baxtiyor, shunday shod tuyulardi.* Hali majlisda qandaydir yaramas bir bola to'g'risida gap bo'ldi. U yaramas bola armiyadan qochgan. Qishlog'ini, ota-onasini xijolatga qo'ygan. Negadir Ikromjon bunga uncha parvo qilmadi. Bu gaplarning unga mutlaqo aloqasi yo'q. U taqdirlangan, zoye ketmagan mehnatlarining gashti bilan mast edi. Klubdan chiqqan kishilar to'da-to'da bo'lib simyog'och tagida gaplashib turishibdi. Xotin-xalaj allaqachon tarqab ketgan. Tog'a harbiy komissarlikdan kelgan leytenant bilan pachag'i chiqqan qora "Emka" mashinasi oldida nimanidir shivir-shivir gaplashib turibdi.(113 so'z)

### **TOPSHIRIQLAR:**

1. Berilgan matn qaysi asardan olingan? Asar nomi hamda g'oyasini aniqlang. **(Bilish)**
2. Matnda ajratib ko'rsatilgan jumlada yordamchi so'z turkumlarining qanday turlari ishtirok etgan? **(Bilish)**
3. Asarda "... *U yaramas bola armiyadan qochgan. Qishlog'ini, ota-onasini xijolatga qo'ygan.*" deya gapirilayotgan qahramonga tavsif bering. Ushbu qahramonning asarda tutgan o'rnini izohlang. **(Qo'llash)**



4. Matnda ajratib ko‘rsatilgan gapni morfologik tahlil qiling va gapdagi sintaktik vazifasini belgilang. **(Qo‘llash)**

A) morfologik tahlil

| ot | sifat | son | olmosh | ravish | fe‘l |
|----|-------|-----|--------|--------|------|
|    |       |     |        |        |      |
|    |       |     |        |        |      |
|    |       |     |        |        |      |
|    |       |     |        |        |      |
|    |       |     |        |        |      |

B) Sintaktik tahlil \_\_\_\_\_

5.” ...Baxtiyor odam hammani o‘ziga o‘xshatadi” ...Mulohazaning ma’nosini hayotiy dalillar bilan izohlang. **(Mulohaza)**

#### IV VARIANT

O‘limidan bir kun oldin kechasi bilan qor yog‘ib chiqdi. Keyin qattiq shamol esdi: qor uchqunlari deraza oynasiga shitirlab urilardi. O‘rikzorda ikki-uch marta bo‘ri uvlagani eshitildi. Ertalab havo tund, osmonni past tushgan bulutlar qoplab olgan, ayvonda chumchuqlar chirqillashar edi...

“Ha, qor qalin. Yemish uchun qishloqqa engan”, - deb o‘yladi va shunday paytlarda choldevorlar ichida kezib, ham kakliklarni uchirib otgani, qanotlari muzlab qorga kirib qolganini tayoq bilan urib olganini... eslab, shunday betoqatlandi! Darhol turib o‘tirib, miltiqqa o‘q joyladi. Keyin derazadan boqqa uzoq tikildi... “Kak-kiba, ka-kiba, kak-kak-kak!..”

Kaklik uyi orqasidan, chamasi o‘sha Quriqsoy tomonda sayrardi... Ayvonga chiqdi. Kaklik haqiqatan ham, Quriqsoy tomonda sayrardi... (99 so‘z)

#### TOPSHIRIQLAR:

1. Ushbu matn qaysi asardan olingan? Asar nomi hamda g‘oyasini aniqlang. **(Bilish)**

2. Matndan tagiga chizilgan qo‘shma gap turini aniqlab yozing hamda sodda gaplarning bog‘lanishini izohlang. **(Bilish)**

3. Asar janriga xos xususiyatlarni ajratib yozing. Bosh qahramonning o‘limiga sabab bo‘luvchi omillarni izohlang **(Qo‘llash)**

4. Matnda berilgan gapda tinish belgisining qo‘yilish sababini izohlang. **(Qo‘llash)**

5. Omon ovchi nega buncha kaklik ovlashga ishqiboz edi? Dalillar bilan fikringizni asoslang. **(Mulohaza)**

#### V VARIANT

Sen Mashrabsan,  
Xalqda tumor,  
Balxda dorga osilgan.  
Navoiysan, shoh yonida  
Faqirni duo qilgan.  
Yassaviysan, meniki deb,  
Ko‘ringan da’vo qilgan,  
Ming bir yog‘i ochilmagan  
Qo‘rig‘imsan, Vatanim.  
Sen Xo‘jandsan,  
Chingizlarga  
Darbozasin ochmagan,  
Temur Malik orqasidan  
Sirdaryoga sakragan.  
Muqannasan qorachig‘i  
Olovlarga sachragan,  
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon:  
Cho‘lig‘imsan, Vatanim.

Kim Qashqarni qildi makon,  
Kim Enasoy tomonda,  
Jaloliddin — Kurdistonda,  
Boburing — Hindistonda,  
Bu qanday yuz qarolik deb,  
Yotarlar zimistonda.  
Tarqab ketgan to‘qson olti  
Urug‘imsan, Vatanim...  
O‘g‘lim desang osmonlarga  
G‘irot bo‘lib uchgayman,  
Chambil yurtda Alpomishga  
Navkar bo‘lib tushgayman,  
Padarkushdan pana qilib  
Ulug‘beking quchgayman,  
G‘ichir-g‘ichir tishimdagi  
So‘lig‘imsan, Vatanim...  
(90 so‘z)

#### TOPSHIRIQLAR:

1. Ushbu matn qaysi asardan olingan? Asar nomi hamda g‘oyasini aniqlang. **(Bilish)**

2. *Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon:*

*Cho‘lig‘imsan, Vatanim.* Ushbu satrlarda tinish belgilarining qo‘yilish sababini tushuntiring. **(Bilish)**

3. *Kim Qashqarni qildi makon,*

*Kim Enasoy tomonda...* deganda shoir Muhammad Yusuf nimani nazarda tutadi?  
**(Qo‘llash)**

4. Matnda kelgan “*Jaloliddin — Kurdistonda, Boburing — Hindistonda*” satridagi qo‘shma gap turini yozing hamda sodda gaplarning bog‘lanishini izohlang.  
**(Qo‘llash)**

5. Shoir ota-bobolarimiz haqida: “...Bu qanday yuz qarolig‘ deb, yotarlar zimistonda” misralarni nima maqsadda ifodalaydi? Mulohaza qiling.  
**(Mulohaza)**

#### VI VARIANT

Qizcha dunyoga kelishi oilaning boshiga yoqqan la‘nat bo‘lganini bolaligidanoq sezgan edi. Shuning uchun odamlardan o‘zini chetga olib, doim yolg‘izlikka intilar edi. Hamma uni birdan esdan chiqarib qo‘ya qolsa, unga ancha yengil bo‘lardi, chog‘i. Biroq o‘z musibatini kim ham esdan chiqara oladi? Ota-onasi shu haqda o‘ylagani-o‘ylagan. **Ayniqsa, onasi hammadan ko‘proq iztirob chekardi.** U qiziga qarab o‘zidan nomus qilardi: qiz degan onaga o‘g‘il boladan ko‘ra hamisha yaqinroq bo‘ladi-da. Qiz bola ona vujudining bir qismi, undagi har qanday nuqson onani nomusga qo‘yadi... U tildan mahrum bo‘lsa ham, lekin ko‘zlari qora, shahlo, kipriklari uzun, lablari qiz qalbida tug‘yon urgan hislarni aks ettirib, gul bargiday titrab turardi. (102 so‘z)

#### TOPSHIRIQLAR:

1. Ushbu matn qaysi asardan olingan? Asar nomi hamda g‘oyasini aniqlang.  
**(Bilish)**

2. Matndagi 1-gapdagi ko‘chma ma‘noli so‘zni aniqlab, leksik xususiyatini yozing.  
**(Bilish)**

3. Ajratib ko‘rsatilgan gapdan yozuvchining asosiy maqsadini izohlang. **(Qo‘llash)**

4. Matndan oxirgi berilgan qo‘shma gap turini aniqlab yozing, sodda gaplarning bog‘lanishini izohlang va uyushiq bo‘laklarini yozing. **(Qo‘llash)**

5. Shubxaning dunyoga kelishini oila a‘zolari nega la‘nat sifatida qabul qilishdi? Dalillar bilan fikringizni asoslang. **(Mulohaza)**

## VII VARIANT

Sarsonboy ota javob bermadi. Uning bugun go‘yo niyatiga yetadigandek kayfi chog‘ edi, lekin o‘rtog‘ining gapi bilan ko‘ngli buzildi.

Bir: “Sening nima ishing bor? Choyingni sotsang-chi!” – demoqchi ham bo‘ldi, tili bormadi. Madumar akaning gapida jon bor edi. O‘g‘lidan qoraxat kelganidan keyin bechora o‘n yil kutdi. Xatsiz, xabarsiz xotini farzand dog‘ida ado bo‘lay dedi. O‘zi esa, cho‘p bo‘lib qoldi. Oxiri chidolmay aza ochdi. Ermagi – choyxona. Madumar akaning bugungi gapida chindan ham jon bor edi. “Azbaroyi achinganimdan gapiraman...” Nahotki, uning ahvoli achinarli bo‘lsa?! Sarsonboy ota shunday o‘yladi-yu, yuragini nimadir timdalab ketganday bo‘ldi. Lablari titrab, tuproqdek sarg‘aygan soqoli tortildi. Nimadir tomog‘iga kelib tiqildi....

...Madumar aka yangi damlangan choynakdan choy quyib, o‘rtog‘iga uzatdi, odam kam bo‘lgani uchun o‘zi ham yoniga o‘tirdi. (114 so‘z)

### TOPSHIRIQLAR:

1. Berilgan matn qaysi asardan olingan? Asar nomi, janri va g‘oyasini aniqlang. **(Bilish)**
2. Matndan tagiga chizilgan qo‘shma gaplar turini aniqlab yozing hamda sodda gaplarning bog‘lanishini izohlang. **(Bilish)**
3. Matnda keltirilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantiring. **(Qo‘llash)**
4. ”... o‘g‘lidan qoraxat kelganidan keyin bechora o‘n yil kutdi. Xatsiz, xabarsiz xotini farzand dog‘ida ado bo‘lay dedi. O‘zi esa, cho‘p bo‘lib qoldi..” Ushbu qahramonning asarda tutgan o‘rnini izohlang. **(Qo‘llash)**
5. Nega hamma Sarsonboy otaga achinadi? ... Nahotki, uning ahvoli achinarli bo‘lsa?! Mulohaza qiling! **(Mulohaza)**

## VIII VARIANT

...Husayn Boyqaro bir daqiqa taradduddan so‘ng atrofdagi yigitlarga o‘qraygan ko‘zlarini yuritdi-da, shoirga ijozat berdi. Navoiy qilichini qinidan sug‘urdi (qilichning birinchi va so‘nggi marta sug‘urilishi edi!), dadillik bilan odim otib ketdi. Lekin u tepaga ko‘plar mo‘ljallagan yo‘ldan emas, boshqa yo‘ldan chiqa boshladi. Shu vaqtda kimdir bir dasta shamni yoqib, baland ko‘tardi. Hammaning ko‘zi qilichini hassa kabi yerga qadab, tepaga ko‘tarilayotgan shoirda edi. Uning

ko‘lankasi ko‘zdan g‘oyib bo‘lar-bo‘lmas, navkari Boboali orqadan qilich yalang‘ochlab yugurdi. **Dam** o‘tmay, o‘nlab yigitlar qo‘rg‘onga hujum qilganday, shijoat va ildamlilik bilan shoir chiqqan yo‘ldan tepaga otilishdi...

Navoiy boshliq Boboali va bir dasta yigitlar Mirzo Yodgorni sudrashib, tepadan tushishdi-da, Husayn Boyqaroning **oti** oyog‘i ostiga tashladilar. (105 so‘z)

### TOPSHIRIQLAR:

1. Berilgan matn qaysi asardan olingan? Asar nomi, janri va g‘oyasini aniqlang. **(Bilish)**

2. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zning omonim va sinonimlarini yozing hamda ma’nolarini izohlang. **(Bilish)**

3. Matnda berilgan 1-gap tarkibidagi so‘zlar turkumini aniqlab yozing va gapdagi sintaktik vazifasini belgilang. **(Qo‘llash)**

4. Shuncha ish ko‘rgan jangchilar botinmagan ishga shoirning dadillik bilan kirishgani sababini izohlang. Shoirning harbiy ishdan xabardorlik darajasiga baho bering. **(Qo‘llash)**

5. Asarda shoirning o‘z ilmida kamchiliklar borligi to‘g‘risida gapirishini qanday izohlaysiz? Mulohaza qiling. **(Mulohaza)**

### IX VARIANT

.. Bolalarim, unutmangki, davlat ishida.

Har qanday yumushning ham o‘z o‘rni bordir.

Minglab xufya xizmat qilar bizga, masalan,

Ammo ular tanishmagay bir-birlarini.

Xabarlarini shoshilmasdan tinglab, o‘rganib,

Barchasidan chiqargaymiz zarur xulosa.

Yurish qilish lozim bo‘lsa yiroq ellarga

Tadorigin ko‘rmoq kerak uch-to‘rt yil avval.

Siz, chunonchi, sarhadlarda yaylov tayyorlang.

Yilqilarni ko‘paytiring o‘sha joylarda.

Toki sizning horg‘in otlar yetib borgan payt

Tulpor bo‘lib, kishnab tursin minglab toychoqlar.

Yov qo‘shinin tahlikaga solmoqlik uchun

Tunda uning atrofida gulxanlar yoqing.  
Necha yuzlab miltillagan cho‘g‘larni ko‘rgach,  
Yog‘iy sizning lashkarlarni ko‘p deb o‘ylagay.  
Shabxun deya ataladi, tungi hujumlar.  
To‘rtta otning biqiniga shox-shabbalardan  
Oddiygina supurgini bog‘lab qo‘ysangiz —  
Chunon to‘zon ko‘tarilgay, deysiz qiyomat! (103 so‘z)

### TOPSHIRIQLAR:

1. Berilgan matn qaysi asardan olingan? Asar nomi, janri va g‘oyasini aniqlang. **(Bilish)**
2. Matnda yordamchi so‘z turkumlarining qanday turlari ishtirok etgan? **(Bilish)**
3. Yuqorida berilgan parcha asarning qaysi qahramoni nutqidan olingan? Asarda ushbu qahramonning tutgan o‘rnini izohlang. **(Qo‘llash)**
4. Ajratib ko‘rsatilgan gapda tinish belgilarining ishlatilish sababini izohlang. **(Qo‘llash)**
5. Asarda Amir Temurning: “Bizning uchun ulkan zamin Shatranj taxtasi”, — degan iqrorida, sizningcha, afsus ko‘pmi, iftixor? **(Mulohaza)**

### X VARIANT

...Rivoyatga ko‘ra, o‘tgan zamonlarda Sario‘zakni bosib olgan jungjanglar asirga tushgan jangchilarga nisbatan behad shafqatsizlik qilishar ekanlar. Ular kezi kelib bunday tutqunlarni qo‘shni o‘lkalarga qul qilib sotib yuborishar ekan. Bu tutqunning omadi kelgan hisoblanar ekan. Chunki sotib yuborilgan qul ertami-kechmi, bir kuni o‘z vataniga qochib ketishi mumkin ekan-da. Jungjanglarning qo‘l ostida tutqun bo‘lib qolganlarning esa sho‘ri qurir ekan. Ular mahkumning boshiga teri qalpoq tortish yo‘li bilan dahshatli bir tarzda qiynab, uning xotirasini yo‘qotar ekanlar. Odatda bunday jazoga jangda asir tushgan yosh yigitlar giriftor bo‘lishardi. Avvaliga jungjanglar tutqunning sochini dastlab o‘ngidan, so‘ngra teskarisidan taqir qirib tashlashadi. Sartaroshlik marosimi tugagach, jungjanglarning chapdast qassoblari kattakon bir tuyani so‘yib, terisini shila boshlaydilar... (107 so‘z)

### TOPSHIRIQLAR:

1. Berilgan matn qaysi asardan olingan? Asar nomi, janri va g'oyasini aniqlang. **(Bilish)**
2. Matnda 1-gap tarkibida so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday turlari ishtirok etgan? **(Bilish)**
3. Parchada keltirilgan voqeaning insoniyat taqdiri va fojiasiga ta'siri sabablarini izohlang. **(Qo'llash)**
4. Matnda berilgan 1-gapda tinish belgisining qo'yilish sababini izohlang. **(Qo'llash)**
5. Ona o'g'lining manqurt bo'lguncha o'lgani ma'qul deb o'ylagani holda uni topgisi kelaverganini mulohaza qiling. **(Mulohaza)**